



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 512 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<i>Allamurodov Elyor Tursun ugli</i>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<i>Dilrabo Jumanova</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<i>Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</i>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<i>Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</i>	
Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar	247
<i>Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi</i>	
Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools.....	250
<i>Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna</i>	
Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari	255
<i>Berdiyeva Dilnoza A'zamovna</i>	
Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv	258
<i>Charos Axmadova</i>	
STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	262
<i>Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich</i>	
Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi	267
<i>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar	272
<i>Erimmetova Nafisa Bahromovna</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari	279
<i>Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi</i>	
Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	283
<i>Karimov Jaxongir Abdunabiyevich</i>	
Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili.....	287
<i>Madaminova Shaxodat Shomurotovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari.....	293
<i>Mahmudova Maftuna Aktam qizi</i>	
Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study	297
<i>Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li</i>	
Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi.....	301
<i>Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza</i>	
Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari.....	305
<i>Muxitdin Nazarov</i>	
10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ...	310
<i>Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya.....	314
<i>Qurbonova Gulmira Alisher qizi</i>	



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
<i>Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
<i>Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna</i>	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
<i>To'g'izboev Faxriddin Ulashovich</i>	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
<i>Turabova Lobar Xusen qizi</i>	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
<i>Usmonova Xusnora Ergashovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish.....	344
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
<i>Axmedov Gayratjon Kosimovich</i>	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
<i>Бабаджанова Гулчехра</i>	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
<i>Габдулманова Ильнура Минисламовна</i>	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
<i>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
<i>Ergashova Dilafro'z</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
<i>Hayitova Sarvinov Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
<i>Khurshida Kuchkarova</i>	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
<i>Ibodova Gulimehr Inoyat qizi</i>	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
<i>Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Musiq ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	382
<i>Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi</i>	
The Importance of the Concept of Discursive Competence in Teaching English.....	386
<i>Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi</i>	
Koxlear implantli bolalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishning korreksion-pedagogik asoslari.....	390
<i>Najimova Muhabbat</i>	
Alfa avlod uchun internet xavflari klassifikatsiyasi metodlarini ishlab chiqish klassifikatori	393
<i>Ahralov Shavkat Sulaymonovich, Ahrorova Sevara Sulaymon qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari.....	398
<i>Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna</i>	
Koxlear implantatsiyali o'quvchilarning psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	401
<i>Yuldasheva Saodat Utkurovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g'oyalardan kreativ foydalanishga tayyorlashning ustuvor tamoyillari.....	406
<i>Akbarova Feruza Uktamjonovna</i>	

Biologiya ta'lim bosqichida noan'anaviy integratsiyalashgan darslar jarayonida CLIL texnologiyasini joriy etish	410
<i>Azimov Ibragimjon Toshpulatovich, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i>	
Onlayn ta'lim muhitida didaktik kompetensiyani takomillashtirish yo'llari	416
<i>Kushimova Mahbuba Janibekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantga ega bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari.....	420
<i>Mirzayeva Umidaxon Inamovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlar va tamoyillar tizimi.....	423
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning psixologik imkoniyatlari.....	426
<i>Ramazonov Jahongir Djalolovich</i>	
Changes in the Structure and Strength of the Aluminum Alloys SAV-1 Irradiated With Fast Neutrons.....	431
<i>S. A. Baytelesov, F. R. Kungurov, G. N. Turdieva, I. V. Papushki, A.V. Galushko</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga diagnostik model asosida yondashuv.....	438
<i>Suvankulova Malika Baxtiyor qizi</i>	
"Integratsion mexanizm" – integratsiyani tadqiq etishdagi muhim yo'nalish sifatida	444
<i>Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talaba qizlarining somatotipik va funksional xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan individual fitnes mashg'ulotlari uslubiyati.....	447
<i>Ziyatov Muhammad Namazovich</i>	
Проблемы формирования координационных способностей у дошкольников с нарушением слуха и рекомендации по их развитию	451
<i>Закирова Сарвиноз Баратовна, Кобулова Шахризода Равшан кизи</i>	
Uy ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	455
<i>Sodiqova Nurgul Tursunboyevna</i>	
Paradzyudoni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularni takomillashtirish yo'llari.....	459
<i>Berdiyev Sherzod Ochilovich</i>	
Pedagogik antropologiya Ushinskiy talqinida	462
<i>Ochilova M. P.</i>	
Using Concept Checking Questions to Improve Vocabulary Retention in English Language Classrooms: Evidence from Uzbekistan	468
<i>Ramazonov Jasurbek Safar O'g'li</i>	
Oliy ta'limda tasviriy san'at: an'anaviylik va zamonaviy tendensiyalar uyg'unligi	472
<i>Bozorov Farxod Toyir o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida ona tili o'qitishning kognitiv-kontseptual asoslari va lingvodidaktik tizimini takomillashtirish	475
<i>Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna</i>	
O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish	478
<i>Salohiddinova Lobar Qahramon qizi</i>	
Deontologik yondashuv asosida maktab direktorlarining boshqaruv madaniyatini takomillashtirish.....	482
<i>Abdulxayeva Maxiraxon Boriyxonovna</i>	
Sportchilarda gipoksik mashg'ulotlar davomida qon aylanish tizimining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish.....	485
<i>Adilbekov T. T.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik va tejamkorlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi.....	488
<i>Alisherova Raxnamo Odiljon qizi</i>	
Pedagogikada enigmatik matn tushunchasi: nazariy talqin, tasnif va didaktik funksiyalar	493
<i>Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</i>	
Futbol akademiyalarida yosh iste'dodlarni kashf etishda murabbiyning pedagogik mahorati va bolalar psixologiyasi	498
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullayevna, Kadirov Abdurashid</i>	



Ikkinchi tartibli egri chiziqlar va ularni hayotiy masalalarga tatbiq etish orqali o'qitish metodikasi 502 To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	502
Sport jamoalarida norasmiy liderlikning shakllanish omillari va psixologik asoslari (raqamli muhit kontekstida) 507 Usmonov Alisher G'offorali o'g'li	507



PEDAGOGIKADA ENIGMATIK MATN TUSHUNCHASI: NAZARIY TALQIN, TASNIF VA DIDAKTIK FUNKSIYALAR

Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0001-7916-0482

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogikada enigmatik matn tushunchasining nazariy mohiyati, tasnifi hamda didaktik funksiyalari tahlil qilingan. Enigmatik matnlarning o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida pedagogik va lingvistik manbalar qiyosiy tahlil qilinib, enigmatik matnlarga oid ilmiy yondashuvlar umumlashtirildi. Shuningdek, enigmatik matnga pedagogik nuqtai nazardan aniqlashtirilgan ta'rif berildi hamda uning didaktik imkoniyatlari tavsiflandi.

Kalit so'zlar: enigmatik matn, enigma, didaktika, pedagogika, ijodiy tasavvur, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, matn lingvistikasi.

Abstract: This article analyzes the theoretical essence, classification, and didactic functions of the enigmatic text in pedagogy. It highlights the importance of enigmatic texts in developing students' creative imagination. Using a comparative and analytical approach, pedagogical and linguistic sources were studied, and existing scholarly perspectives on the concept were synthesized. In addition, a refined pedagogical definition of the enigmatic text is proposed, and its didactic potential is characterized.

Key words: enigmatic text, enigma, didactics, pedagogy, creative imagination, reading literacy, primary education, text linguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретическая сущность, классификация и дидактические функции энigmatического текста в педагогике. Освещается значение энigmatических текстов в развитии творческого воображения учащихся. В ходе исследования на основе сравнительно-аналитического подхода были изучены педагогические и лингвистические источники, а также обобщены существующие научные подходы к данному понятию. Кроме того, предложено уточнённое педагогическое определение энigmatического текста и охарактеризованы его дидактические возможности.

Ключевые слова: энigmatический текст, энigma, дидактика, педагогика, творческое воображение, читательская грамотность, начальное образование, лингвистика текста.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchini tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi obyekt emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda kashf etuvchi, tahlil qiluvchi va yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion didaktik vositalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ana shunday vositalardan biri enigmatik matnlar hisoblanadi.

Enigmatik matnlar o'quvchilarni yashirin ma'no va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga hamda mustaqil xulosalar chiqarishga undaydi. Natijada o'quvchilarning kognitiv faolligi, tanqidiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, matn asosida o'qitish metodikasi, muammoli ta'lim hamda kognitiv rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, "enigmatik matn" tushunchasining pedagogik mohiyati, uning didaktik imkoniyatlari va boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa mazkur masalani ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

"Enigma" atamasi qadimgi yunon tilidagi ainigma so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "topishmoq", "sir" yoki "yashirin ma'no" ma'nolarini anglatadi. Pedagogik talqinda enigmatik matn o'quvchini matnda bevosita ifodalangan mazmuni aniqlashga, mantiqiy mushohada yuritishga va muammoning yechimini mustaqil topishga

yo'naltiruvchi didaktik matn turi hisoblanadi. Enigmatik matnlarning asosiy xususiyati shundaki, ular o'quvchini tayyor bilimni o'zlashtirish bilan cheklab qo'ymaydi, balki axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va ijodiy qayta ishlashga undaydi. Shu jihatdan ular konstruktivistik va kognitiv yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samarali didaktik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Enigmatik matnlar o'zining mazmuniy va strukturaviy xususiyatlari bilan an'anaviy axborot beruvchi matnlardan farq qiladi. Oddiy matnlarda ma'lumotlar ko'pincha ochiq va bevosita ifodalansa, enigmatik matnlarda muayyan ma'no, bog'lanish yoki muammo yashirin holda taqdim etiladi. O'quvchi ushbu yashirin ma'noni aniqlash uchun mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, taxmin qilish va xulosa chiqarish kabi murakkab intellektual amallarni bajarishga majbur bo'ladi. Natijada bilimlarni passiv qabul qilish emas, balki ularni faol konstruksiya qilish jarayoni yuzaga keladi.

Konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki shaxs tomonidan mavjud tajriba va yangi axborotlar asosida mustaqil ravishda quriladi. Enigmatik matnlar aynan shu jarayonni faollashtiruvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi matn mazmunini tushunish uchun o'zining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi va mantiqiy mushohadalariga tayanadi. Bu esa bilimlarning chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan enigmatik matnlar yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. Jumladan, o'quvchilar matndagi yashirin ma'nolarni aniqlash jarayonida analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish va refleksiya kabi aqliy faoliyatlarni amalga oshiradilar. Bu esa ularning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metakognitsiya shaxsning o'z fikrlash jarayonini nazorat qilishi va boshqarishi bilan bog'liq bo'lib, samarali o'qish va o'rganishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida enigmatik matnlardan foydalanish o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning matndan yashirin axborotni topish, xulosalar chiqarish va muallif pozitsiyasini anglash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratiladi. Enigmatik matnlar mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki bunday matnlar o'quvchidan faqat matn mazmunini qayta hikoya qilishni emas, balki uni chuqur tahlil qilish va izohlashni talab etadi.

Enigmatik matnlarning didaktik imkoniyatlari bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sirlil yoki jumboqli vaziyatlar bolalarda tabiiy qiziqish uyg'otib, muammoni hal etishga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Ikkinchidan, ular ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki enigmatik vaziyatlar ko'pincha bir nechta ehtimoliy yechimlarga ega bo'lib, o'quvchilar turli variantlarni ilgari surishga harakat qiladilar. Uchinchidan, ular kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini asoslash, dalillar keltirish hamda boshqalarning fikrlarini tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Pedagogik nuqtayi nazardan enigmatik matnlar muammoli ta'lim texnologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ham qaralishi mumkin. Muammoli ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlashga yo'naltirishdir. Enigmatik matnlar o'zida muammoli vaziyat elementlarini mujassamlashtirganligi sababli o'quvchilarni izlanishga, savollar qo'yishga va dalillar asosida xulosalar chiqarishga undaydi. Shu tariqa ta'lim jarayonida tadqiqotchilik kompetensiyalarining dastlabki elementlari shakllanadi.

Shuningdek, enigmatik matnlar differensial ta'limni tashkil etishda ham samarali vosita hisoblanadi. Turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar yordamida o'quvchilarning individual imkoniyatlari va intellektual salohiyatini hisobga olish mumkin. Kuchli o'quvchilar murakkabroq mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga jalb qilinsa, o'zlashtirishi nisbatan sust bo'lgan o'quvchilar uchun soddalashtirilgan enigmatik matnlar taklif etilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Enigmatik matnlar fenomeni pedagogika, psixologiya, lingvistika hamda kognitiv fanlar kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning mazmun-mohiyati o'quvchilarning bilish faoliyati, muammoli fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish hamda yashirin ma'nolarni anglash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda o'quvchining faol bilish faoliyatini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, Lev Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan sotsiokultural rivojlanish nazariyasida ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asoslab berilgan^[1]. Olimning "yaqin rivojlanish zonasini" konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan, biroq pedagog yoki tengdoshlari ko'magida hal qilishi mumkin bo'lgan vazifalar uning intellektual rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Enigmatik matnlar aynan shunday kognitiv qiyinchilik darajasini yuzaga keltirib, o'quvchini faol izlanishga undaydi^[1].



Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida esa bolaning tafakkuri bosqichma-bosqich shakllanishi ta'kidlanadi ^[2]. Olimning fikricha, yangi bilimlar assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali o'zlashtiriladi. Enigmatik matnlar o'quvchilarda mavjud bilimlar bilan yangi axborot o'rtasida kognitiv ziddiyat hosil qilib, tafakkurning faol ishlashiga sabab bo'ladi ^[2]. Natijada o'quvchi muammoni hal etish uchun yangi intellektual strategiyalarni ishlab chiqishga intiladi.

Jerome Bruner tomonidan ilgari surilgan kashfiyot orqali o'qitish konsepsiyasi ham mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Bruner ta'lim jarayonida bilimlarni tayyor holda berish emas, balki o'quvchilarning mustaqil ravishda kashf etish faoliyatini tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi ^[3]. Enigmatik matnlar aynan ana shu tamoyilga asoslanib, o'quvchini yashirin ma'nolarni aniqlash va xulosalarni mustaqil shakllantirishga yo'naltiradi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari bo'yicha Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan lateral fikrlash nazariyasi alohida ahamiyatga ega ^[4]. Mazkur nazariyaga ko'ra, murakkab muammolarni hal qilishda standart algoritmlardan tashqari alternativ fikrlash strategiyalaridan foydalanish zarur. Enigmatik matnlar o'quvchilarning muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish, noodatiy yechimlarni izlash va ijodiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi ^[4].

So'nggi yillarda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlamoqda. Xususan, PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning matndagi yashirin ma'nolarni aniqlash, dalillar asosida xulosa chiqarish, axborotni tahlil qilish hamda tanqidiy baholash kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilgan ^[5, 6]. Mazkur kompetensiyalar esa enigmatik matnlarning asosiy funksional xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish, matn ustida ishlash metodikasi, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish hamda muammoli ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari keng o'rganilgan. Tadqiqotlarda matn bilan ishlashning turli metodlari, o'quvchilarning nutqiy va kognitiv rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "enigmatik matn" tushunchasi mustaqil pedagogik kategoriya sifatida yetarli darajada nazariy asoslanmagan.

Aksariyat tadqiqotlarda topishmoqlar, mantiqiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar yoki kreativ mashqlar alohida obyekt sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yagona didaktik tizim sifatida birlashtiruvchi konseptual yondashuv deyarli uchramaydi. Natijada enigmatik matnlarning tarkibiy tuzilishi, pedagogik funksiyalari, tasnifi va metodik imkoniyatlari bo'yicha ilmiy qarashlarda ma'lum bo'shliqlar mavjudligi kuzatiladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda enigmatik matnlar alohida didaktik kategoriya sifatida talqin qilinib, ularning nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari, tasnifi hamda boshlang'ich ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari tizimli ravishda yoritiladi.

Mazkur tadqiqotda enigmatik matnlarning pedagogik mohiyati va didaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy bilishning bir qator nazariy metodlaridan foydalanildi. Birinchidan, qiyosiy-tahliliy metod asosida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Ushbu metod orqali kognitiv rivojlanish, muammoli ta'lim, konstruktivistik pedagogika hamda ijodiy tafakkur nazariyalarining umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, tizimli yondashuv metodi asosida enigmatik matnlar boshlang'ich ta'limning yaxlit didaktik tizimi elementi sifatida o'rganildi. Bunda matnning mazmuniy tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va kutilayotgan natijalari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Uchinchidan, kontent-tahlil metodi yordamida pedagogik va metodik adabiyotlarda uchraydigan "topishmoq", "muammoli matn", "mantiqiy topshiriq", "kreativ vazifa", "yashirin ma'noli matn" kabi tushunchalarning mazmuni o'rganildi hamda ularning umumiy didaktik xususiyatlari aniqlanib, yagona "enigmatik matn" kategoriyasi doirasida tizimlashtirildi.

Shuningdek, ilmiy umumlashtirish va konseptual modellashtirish metodlari asosida enigmatik matnlarning mualliflik tasnifi ishlab chiqildi. Ushbu tasnifda enigmatik matnlar mantiqiy-enigmatik, obrazli-enigmatik, muammoli-enigmatik va kreativ-enigmatik turlarga ajratildi hamda ularning pedagogik imkoniyatlari tavsiflandi.

Tadqiqot natijalari enigmatik matnlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirishda samarali didaktik vosita ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur matnlar o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishi, o'quv faoliyatiga qiziqishini oshirishi va refleksiv fikrlashni rivojlantirishi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan matnlar asosan informativ va reproduktiv xarakterga ega bo'lib, ular o'quvchilarning ijodiy fikrlashini yetarli darajada faollashtirmaydi.

O'rganishlar natijasida enigmatik matnlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi, yashirin ma'no yoki muammoli vaziyatni o'z ichiga olgan maxsus didaktik matn turi ekanligi asoslandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, enigmatik matnlarning asosiy pedagogik vazifasi o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda kashf etuvchi faol ishtirokchi sifatida shakllantirishdan iborat. Bunday matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchi matndagi yashirin bog'lanishlarni aniqlaydi, taxminlar ilgari suradi, dalillarni solishtiradi va xulosalar chiqaradi. Natijada o'quv faoliyati reproduktiv xarakterdan produktiv xarakterga o'tadi.

Adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirish natijasida enigmatik matnlarning quyidagi mualliflik tasnifi ishlab chiqildi.

1-jadval: Enigmatik matnlarning didaktik tasnifi va rivojlantiruvchi imkoniyatlari

Enigmatik matn turi	Asosiy tavsifi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Mantiqiy-enigmatik matnlar	Yashirin mantiqiy bog'lanishlarni topishga asoslanadi	Tanqidiy fikrlash, tahliliy tafakkur
Muammoli-enigmatik matnlar	Muammoli vaziyatni yechishga yo'naltiriladi	Qaror qabul qilish, muammoni hal etish
Obrazli-enigmatik matnlar	Ramz, timsol va metaforalarni sharhlashga asoslanadi	Tasavvur, interpretativ tafakkur
Kreativ-enigmatik matnlar	Bir nechta yechim variantlarini talab qiladi	Ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv

Mazkur tasnif enigmatik matnlarning didaktik imkoniyatlarini tizimli ravishda tavsiflash imkonini berdi. Har bir tur o'quvchilarning muayyan kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim maqsadlariga muvofiq tanlanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari enigmatik matnlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ham tasdiqladi. O'quvchilar matn mazmunini yuzaki qabul qilish bilan cheklanmay, yashirin ma'nolarni aniqlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushuntirish hamda muallif g'oyasini talqin etishga intiladilar. Bu esa zamonaviy xalqaro baholash dasturlarida talab etiladigan yuqori darajadagi o'qish savodxonligi ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari enigmatik matnlardan foydalanish ta'lim jarayonining interaktivligini oshirishi, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etishi va mustaqil izlanishga undashini ko'rsatdi. Ayniqsa, guruhli va juftlikda ishlash shakllari bilan integratsiyalashganda ularning pedagogik samaradorligi yanada ortishi kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari enigmatik matnlarning boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, o'qish savodxonligini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vosita ekanligini tasdiqladi.

Muhokama jarayonida enigmatik matnlarning ta'limiy samaradorligi konstruktivistik pedagogika tamoyillari asosida izohlandi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki uning faol bilish jarayonida shakllanadi. Enigmatik matnlar aynan shu jarayonni rag'batlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi matndagi yashirin ma'noni aniqlash uchun mavjud bilimlari va yangi axborotlarni o'zaro integratsiyalashga majbur bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida enigmatik matnlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'qish savodxonligini rivojlantirish hamda tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vosita ekanligi aniqlandi. Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, enigmatik matnlarning mazmun-mohiyati konstruktivistik pedagogika, kognitiv rivojlanish nazariyalari hamda muammoli ta'lim yondashuvlari bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu matnlar o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra, mustaqil izlanish, tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va yangi bilimlarni kashf etishga yo'naltiradi.

Tadqiqot davomida pedagogik adabiyotlarda uchraydigan topishmoq matnlar, muammoli matnlar, kreativ topshiriqlar hamda yashirin ma'noli vazifalar umumlashtirilib, ular yagona "enigmatik matn" kategoriyasi doirasida tizimlashtirildi. Shuningdek, enigmatik matnlarning mantiqiy-enigmatik, muammoli-enigmatik, obrazli-enigmatik va kreativ-enigmatik turlardan iborat mualliflik tasnifi ishlab chiqildi.



Aniqlanishicha, enigmatik matnlar o'quvchilarda axborotni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda turli yechim variantlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda faol muloqot va hamkorlikka asoslangan o'quv muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari enigmatik matnlardan foydalanish o'qib tushunish kompetensiyasining yuqori darajalarini shakllantirishda, xususan, yashirin ma'nolarni anglash, xulosa chiqarish, baholash va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Bu esa xalqaro baholash dasturlarida, jumladan, PIRLS va PISA tadqiqotlarida belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Shunday qilib, enigmatik matnlarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini yuksaltirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Kelgusida enigmatik matnlarning metodik modeli, baholash mezonlari hamda turli fanlar kesimida qo'llash imkoniyatlarini eksperimental tadqiqotlar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. *The Origins of Intelligence in Children*. - New York: International Universities Press, 1952.
3. Bruner J. S. *The Act of Discovery* // *Harvard Educational Review*. - 1961. - Vol. 31, No. 1. - P. 21-32.
4. De Bono E. *Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas*. - New York: HarperBusiness, 1992.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *PISA 2022 Results: The State of Learning and Equity in Education*. - Paris: OECD Publishing, 2023.
6. PIRLS International Study Center. *PIRLS 2021 International Results in Reading*. - Chestnut Hill, MA: Boston College, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.